



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 5 656 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 73 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 583 tani tashkil qildi.


2025-yilning yanvar-avgust oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 596,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar- avgust oyiga nisbatan 8,5 % ga oshdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 343,8 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 252,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 970,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 313 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 35 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 278 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 691,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 499,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 96,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Tuproqqa'l'a (11,7 m.), Yangibozor (2,4 m.), Urganch shahri (2,3 m.), Qo'shko'pir (178,5 %), Shovot (145,6%) va Xiva tumanlarida (110,3 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 439 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 435 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-avgust oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 617,1 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumi ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: +998622246516 (9090)	Ijrochi: S.Kurbanova Tel: +998622246509 (9041) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	---	--